

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AVAZMATOVA MARHABO MUXTORJONOVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA AN‘ANAVIY VA ONLAYN TA‘LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI
(oliy ta‘lim muassasalari misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Avazmatova Marhabo Muxtorjonovna

Ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'lim samaradorligini oshirish metodikasi (Oliy ta'lim muassasalari misolida).....3

Авазматова Мархабо Мухторжоновна

Методика повышения эффективности традиционного и онлайн образования в обучении английскому языку (на примере высших учебных заведений).....27

Avazmatova Marhabo Mukhtorjonovna

Methods of improving the effectiveness of traditional and online education in teaching English (in the example of Higher Education Institutions).....51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AVAZMATOVA MARHABO MUXTORJONOVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA AN‘ANAVIY VA ONLAYN TA‘LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI
(oliy ta‘lim muassasalari misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.Phd/Ped2221 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djumabayeva Jamila Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Nurmanov Abdinazar Tashbayevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Saimnazarova Dilnoza Abdune‘matovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01** raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” ___ kuni soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chspi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” ___ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” ___dagi ___raqamli reyestr bayonnomasi).

U.N.Xodjamqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (Dsc), dotsent

F.T.Rajabov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy
kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

Sh.I.Botirova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (Dsc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun jahonda tobora rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanishi natijasida yuz berayotgan globallashtirish jarayoni muloqot vositasi hisoblangan chet tillarni o'rganishga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda chet tillarini an'anaviy va onlayn o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya va Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan interfaol metodlardan foydalanib ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida chet tillarni an'anaviy hamda onlayn o'qitishni amaliyotga tatbiq etishning o'quv-metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Dunyo miqyosida ilmiy tadqiqot muassasalarida chet tillarni an'anaviy va onlayn o'qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, shaxsga yo'naltirilgan metodlar yordamida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va jadallashtirish, chet tili o'rganuvchilarning lingvistik bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik modellardan foydalanish, o'quv materiallari va mashqlarning muvofiqlarini tanlash, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining bilim va imkoniyatini munosib baholash hamda shu jarayonda tanqidiy fikrlashni yo'lga qo'yib mustaqil ravishda chet tilni o'zlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash, avtonom muhitni muvaffaqiyatli yaratish, talaba faolligini va ijodkorligini oshirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga zarurat ortmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilib, xalqaro standartlar asosida ta'lim sifatini yanada oshirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim"¹ deb ta'kidlab o'tildi. Bunda oliy ta'lim tizimida xalqaro standartlar darajasiga mos mutaxassislar tayyorlash, chet tilini o'qitish sifatini oshirish, ilg'or o'quv dasturlari va metodikalaridan foydalanish, chet tilini o'qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-maydagi "Chet tillarini o'qitishni takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan o'tkazilgan videoselektoridagi nutqi. Elektron resurs: <https://president.uz/uz/lists/view/4327> Murojaat sanasi: 05.06.2021.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 31-dekabrda 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda filologik oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy ta’limda chet tilni o‘qitish vositalari, konsepsiyasi, tamoyillari va metodikasini takomillashtirishga oid masalalar J.J.Jalolov, O‘.H.Xoshimov, I.Ya.Yoqubov, T.Q.Sattorov, G.T.Mahkamova, L.T.Axmedova, B.G‘. Qulmatov, M.X.Gulyamovalar tadqiqotlarida o‘rganilgan¹. Respublikamizda onlayn o‘qitishni o‘z tarkibiga oluvchi masofaviy ta’limning nazariy va amaliy jihatlari A.A.Abdiqodirov, A.X.Pardayev, A.D.Asqarov, A.E.Ibraymov, N.X.Mannanovalar tomonidan tadqiq etilgan².

¹ Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). – T., 2015. – 336 p.; Xoshimov O‘. va boshqalar. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T., 2003. – 210 b.; Sattorov T. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). TDYI. – T., 2003. – 198 b.; Makhkamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching. – T., 2017. – 232 p.; Axmedova J.T. Дистанционное обучение как инновационная образовательная технология / Материалы Международной научно-практической конференции / Инновации в преподавании иностранных языков: вопросы и перспективы. – Нукус, 2019. – С. 14-16; Qulmatov B.G‘. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. b-a falsfa. d-ri (PhD). ...diss. avtoref. – T., 2017. – 47 b.; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. T., 2019. – 262 b.

² Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T., 2009. – 146 b.; Askarov A.D. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – T., 2017. – 121 b.; Ibraymov A.E. Umumta’lim maktabi fizika o‘qituvchilari masofaviy malaka oshirishlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. – T., 2017. –

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.A.Vorobeva, O.S.Kryukova, V.V.Tonkonog, P.I.Ananchenkovalar an'anaviy va onlayn ta'limning o'xshash hamda farqli jihatlarini taqqoslab o'rgangan bo'lsa¹, S.V.Titova, Ye.I.Zadarojnaya, N.A.Kameneva chet tillarni onlayn o'qitishning didaktik va metodik asoslarini ilmiy tadqiq etgan². OTM filologik yo'nalishlarda chet tillarini an'anaviy va onlayn o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, ijobiy va salbiy jihatlari esa N.V.Samarina, A.I.Gazizova, I.A.Rasxodova, I.F.Karimullin, Ye.N.Vinogradova, L.P. Klobukovalarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan³.

Xorijiy davlatlarda an'anaviy va onlayn ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari hamda umumiy xususiyatlari A.G.Piersy, A.Deyv, J.Xeppen, A.Al-Xasanlar tomonidan taqqoslangan holda tadqiq etilgan bo'lsa⁴, OTMda ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari, o'qitish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiklar va ularni bartaraf etish masalalari K.S.Vintr, K.Nelsn, M.L.Sayzmore, M.M.Kamorro, A.Baurel, M.Alhamamilar tomonidan yoritib berilgan⁵.

205 b.; Mannanova N.X. O'zbekistonda pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'limning shakllanishi va rivojlanishi. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. – T., 2019. – 143-b.

¹ Воробева А.А. Современное образование: онлайн или офлайн? / Всероссийская объединенная конференция “Интернет и современное общество”. – М., 2018. – С. 78-80; Осмина К.С. Внедрение онлайн-лекции в традиционное образование // Мир науки, культуры, образования, 2019. – № 4 (77). – С. 177-179; Крюкова О.С. Традиционная и “цифровая” педагогика в современном образовательном пространстве // Россия: тенденции и перспективы развития. – М., 2018. – № 13 (1). – С. 856-57; Тонконог В.В., Ананченко П.И. E-learning: заменит ли дистант традиционные формы обучения? // Труд и социальные отношения, 2017. – № 4. – С. 119-128.

² Титова С.В. Цифровые технологии в языковом обучении: теория и практика. Учеб. пособие. – М., 2017. – 259 с.; Задарожная Е.И. Методика комбинированного онлайн-обучения английскому языку (2-3 классы общеобразовательной школы). Дисс. ...канд. пед. наук. – СПб., 2017. – 188 с.; Каменева Н.А. Дистанционное обучение иностранным языкам // Мир науки, 2015. – № 3. – С. 1-9. <http://mir-nauki.com/PDF/36PDMN315.pdf>

³ Самарина Н.В., Газизова А.И. Интеграция аудиторной и дистанционной форм обучения иностранному языку в вузе // Проблемы современного педагогического образования. Серия: Педагогика и психология, 2018. Вып. 59. Ч. 2. – С. 316-319; Расходова И.А., Каримуллин И.Ф. Роль дистанционного обучения иностранному языку студентов вузов и применение дистанционных технологий как альтернативу традиционным методам обучения / Современные проблемы филологии, педагогики и методики преподавания языков. Научно-практической конференции. – К.: Изд-во КГТУ, 2020. – С. 62-64; Виноградова Е.Н., Клобукова Л.П. В поисках золотой середины: дистанционное обучение онлайн и офлайн // Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специалность, 2018. – № 15 (12). – С. 195-209.

⁴ Percy A.G. Finding the perfect blend: a comparative study of online, face-to-face, and blended instruction. Doctor of Philosophy (Information Science) Dissertation, 2009. – 121 p.; Dave A. A Comparison of student performance in an online class versus a face-to-face (traditional) class: a meta-analysis. Doctor of Education dissertation, 2010. – 105 p.; Heppen J., Sorensen N., Allensworth E., Walters K., Rickles J., Taylor S., Michelman V. The struggle to pass algebra: Online vs. face-to-face credit recovery for at-risk urban students. Journal of Research on Educational Effectiveness, 2017. – № 10 (2). – P. 272-296; Al-Hassan A. A comparison of e-learning and traditional classroom teaching: Petra University. Conf., IATEFL. 2010.

⁵ Winter C.S. Online and face-to-face activities of non-native english speakers. Doctor of Philosophy Dissertation, 2013. – 143 p.; Nelson K. Effectiveness of Online English Composition Learning Versus Classroom Learning. Doctor of education Dissertation Proposal Draft, 2008. – 98 p.; Sizemore M.L. Personalized online learning labs and face-to-face teaching in first-year college english courses. Doctor of philosophy dissertation, 2017. – 185 p.; Chamorro M.M. Comparing Online English Language Learning and Face-to-Face English Language Learning at El Bosque University in Colombia. Doctor of Philosophy Dissertation, 2018. – 135 p.; Bourelle A., Bourelle T., Knutson A.V., Spong S. Sites of multimodal literacy: Comparing student learning in online and face-to-face environments. Computers and Composition: An International Journal for Teachers of Writing, 2016. – № 39. – P.

Olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy miqyosda ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish borasida turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq globallashuv sharoiti talablari asosida xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'limning samaradorligini aniqlash hamda har ikki ta'lim shaklida samarali o'qitish metodikasi masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishda bir nechta metodologik muammolarning mavjudligi, ularni ilmiy tahlil qilish va yechimlar topish zarurati ushbu tadqiqotning olib borilishiga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining "Chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati" mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

"an'anaviy va onlayn ta'lim" tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'lim yondashuvlari, metodlari va texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish;

oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishda mavjud baholash mezonini (rubric) takomillashtirish;

onlayn ta'lim jarayonida ingliz tilini samarali o'qitishning didaktik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'lim samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti, Namangan Davlat universiteti, Chirchiq Davlat Pedagogika universitetlarining 823 nafar 1-2-bosqich talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'qitishga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu), tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz tilini o'qitish an'anaviy ta'limda konstruktivizm nazariyasi, avtonom ta'lim hamda Blum taksonomiyasi integrativ qo'llanganda, onlayn o'qitishda esa tadqiqotlar hamjamiyati (Community of Inquiry) nazariyasining kognitiv,

55-70; Alhamami M. Using ajzen's theory to examine beliefs in efl face-to-face and online lessons. Doctor of philosophy dissertation, 2016. – 322 p.

ijtimoiy va o'qitishning mavjudligi konsepsiyasi ta'minlanganda samarador ekanligi dalillangan;

motivatsion, sinov va tanqidiy fikrlash mashqlari hamda an'anaviy va onlayn o'qitish texnologiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasi hamda "topshiriqqa asoslangan" (Task-based approach) yondashuvi asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishda tengdoshning tengdoshga fikr-mulohazasini e'tiborga olish hamda uni baholash mezoniga qo'shish orqali talabaning lingvistik kompetensiyasining obyektiv baholanishiga erishilgan;

ingliz tilini onlayn o'qitishni takomillashtirishning didaktik modeli hamda talaba faolligini oshirish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash borasidagi metodik tavsiyalar asosida onlayn o'qitish samarador ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarlan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'lim samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilgan;

chet til o'qituvchilari uchun zarur qo'llanma hamda terminlarning batafsil izohlarini o'z ichiga olgan "Chet til o'qitish metodik terminlarining inglizcha-o'zbekcha izohli-rasmlil lug'ati (an'anaviy va onlayn ta'lim)" nomli ikki tilli izohli lug'at yaratilgan;

ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishning metodik prinsiplariga asoslangan mashqlar turkumi, dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'lim samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishga doir interaktiv amaliy dars ishlanmalari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "an'anaviy va onlayn ta'lim" tushunchalarining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarining ochib berilgani, an'anaviy va onlayn ta'limda ingliz tilini o'qitishning nazariy asoslari dalillangani, taklif qilinayotgan texnologiyalarning ilmiy asoslangani, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini lingvistik kompetensiyasini obyektiv baholanishining pedagogik imkoniyatlari aniqlangani, onlayn ta'limda ingliz tilini samarali o'qitishning didaktik modeli va ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishlarida ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi metodik hamda didaktik ta'minotdan ingliz tili o'qituvchilari va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish mazmunini xalqaro ilg'or tajribalar asosida nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanish

mumkinligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator tavsiyalardan darslik hamda o'quv qo'llanmalarda foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini oliy ta'lim muassasalari filologik yo'nalish talabalariga an'anaviy va onlayn ta'limda samarali o'qitish bo'yicha olingan ilmiy natijalar hamda amaliy takliflar asosida:

ingliz tilini an'anaviy ta'limda konstruktivizm nazariyasi, avtonom ta'lim hamda Blum taksonomiyasini integrativ qo'llab, onlayn o'qitishda esa tadqiqotlar hamjamiyati (Community of Inquiry) nazariyasining kognitiv, ijtimoiy va o'qitishning mavjudligi konsepsiyasi yordamida samarali o'qitish borasidagi ilmiy-nazariy xulosalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk markazi tomonidan № 005144 (guvohnoma) raqami bilan 14.10.2022-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan "English-Uzbek visual dictionary of foreign language teaching methodological terms (Traditional and online education)" nomli ikki tilli izohli lug'atining mazmunan boy bo'lishiga xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022-yil 15-dekabrda 02/01-01-110-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "an'anaviy va onlayn ta'lim" tushunchalarining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish imkoni kengaytirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasi va "topshiriqqa asoslangan" (Task-based approach) yondashuvda motivatsion, sinov va tanqidiy fikrlash mashqlari tizimlashtirilib an'anaviy hamda onlayn o'qitish texnologiyasini takomillashtirish kabi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan fikr-mulohazalardan "Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHT-JP Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian Universities: Class" nomli ilmiy loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 17-oktabrdagi 04/11-6461-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, filologik yo'nalish talabalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sifatida o'zlari mashqlarni til o'rganuvchilarga moslab o'zgartirishlar kiritish kabi kasb mahorati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

ingliz tilini onlayn o'qitishni takomillashtirishning didaktik modeli hamda talaba faolligini oshirish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash borasidagi metodik tavsiyalardan "Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-EPP-1-2015-1-UK-EPPKA2-CBHE-SP Internalisation and Modernisation of Education and Processes in the Higher Education of Uzbekistan" nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Namangan Davlat universitetining 2022-yil 8-noyabrdagi 1232-04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi doirasida talabalarni o'quv jarayoniga samarali jalb qilish va muvaffaqiyatli ta'lim faoliyatini tashkil etishga, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'qitishda an'anaviy va onlayn o'qitish

usullaridan foydalanish bilan bog‘liq tashkiliy-metodik ishlarni takomillashtirishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, 1 ta ikki tilli izohli lug‘at, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 15 ta ilmiy maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uch bo‘limdan iborat bo‘lib, mazkur bobda ingliz tilini samarali o‘qitishning didaktik talablari, ya‘ni konstruktivizm nazariyasi, avtonom ta‘lim va Blum taksonomiyasining chet tilni o‘qitishdagi o‘rni, ingliz tilini onlayn o‘qitishning mazmun-mohiyati, onlayn ta‘limni samarali tashkil etishda **“Tadqiqotlar hamjamiyati (Community of Inquiry)”** nazariyasining ahamiyati hamda ingliz tilini an‘anaviy va onlayn o‘qitishga oid ilmiy tadqiqotlar hamda mazkur ikki turdagi ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Ingliz tilini o‘qitishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi, konstruktivizm nazariyasida tilni mustaqil o‘rganish, shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish, ta‘lim jarayonida o‘qituvchining roli hamma savollarga javob beruvchi bilim manbai emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchilik bilan chegaralanishi lozimligi ta‘kidlanadi. C.Chuangning e‘tirof etishicha, konstruktivizm nazariyasi uch xil ko‘rinishda ilmiy muhokama qilinadi: a) individual konstruktivizm; b) ijtimoiy konstruktivizm; v) kontekstualizm. Individual konstruktivizm da bilim aynan bir shaxsning tajribasidan kelib chiqqan holda

ichki kognitiv faoliyat sifatida quriladi va o‘rganiladi¹. Ijtimoiy konstruktivizm esa ta’lim jarayonida turli xil nuqtayi nazarlar muhokama qilinib, yangi bilimlar hamkorlikda ishlash davomida egallanishini ifodalaydi². Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga rus olimi L.S.Vygotskiy tomonidan asos solingan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, o‘rganuvchilar o‘zaro interaksiya orqali muhokama qilib, ma’lumotlarni yaxshiroq tushunib yetadi³. Konstruktivizm nazariyasining kontekstualizm ko‘rinishida esa ta’lim autentik kontekstdan foydalangan holda olib borilishi kerak deb hisoblanadi⁴. Qisqacha qilib aytganda, ushbu nazariya asosida ingliz tili o‘qitilganda til o‘rganuvchilar yangi bilimlarning yaratuvchilari sifatida, mas’uliyatni his qilgan holda ta’lim jarayonida savol-javob, muhokamalar bilan faol ishtirok etish orqali konsepsiyani chuqur anglab yetadi.

Hozirgi kunda ingliz tilini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va metodlar ommalashib borganligi bois “avtonomiya” muhim termin sifatida keng qo‘llanilmoqda. Avtonom ta’limning asoschisi Genri Xolekning ta’riflashicha, bu “o‘z ta’limini zimmasiga olish qobiliyati – bu ta’limning barcha jihatlari bo‘yicha qaror qabul qilish uchun javobgarlik hisoblanadi”⁵. Demak, avtonom ta’lim o‘qituvchining biroz yordami bilan mustaqil chet tilni o‘rganish, hamkorlikda ishlash maqsadida tengdoshlar bilan ijtimoiy munosabatga kirishib, birgalikda o‘rganishdir. Chet tilni avtonom o‘rganishni maqsad qilgan o‘quvchilar, ta’limi uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, muntazam ravishda o‘z bilimlarini tanqidiy tekshira oladi.

Ta’limda aniq maqsad qo‘yish va o‘zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy tekshirish uchun Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ingliz tilini o‘qitishda Blum taksonomiyasining qo‘llanishi talabaga o‘z bilim darajasini qay bosqichda ekanligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa chet til o‘rganuvchilarini taksonomiyaning yuqori kognitiv fikrlash darajalariga intilishga undaydi. Konstruktivizm nazariyasi asosida avtonom ta’limni yo‘lga qo‘yib ingliz tilini o‘rganish natijasida talabalar Blum taksonomiyasining yuqori kognitiv darajasida fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘.R.Saidovning ta’kidlashicha, 1956-yilda Benjamin Blum pedagogik maqsadlarni tartibga solish darajalanishini ifodalash uchun taksonomiya ishlab chiqadi⁶, 2001-yilda esa L.V.Anderson va D.R.Krasvol tomonidan mazkur taksonomiya takomillashtirildi⁷ hamda shundan buyon pedagogika sohasida keng

¹ Chuang S. The applications of constructivist Learning theory and social learning theory on adult continuous Development // Performance Improvement, 2021. Vol. 60. No. 3. – P. 7. DOI: 10.1002/pfi.21963.

² Smith P.L., Ragan T.J. Instructional design. John Wiley. Sons, 2005. – 20 p.

³ Kao Y. Vygotsky’s theory of instruction and assessment: the implications on foreign language education. Dissertation. – USA, 2014. – 280 p.


⁴ Chuang S. The applications of constructivist Learning theory and social learning theory on adult continuous Development // Performance Improvement, 2021. Vol. 60. No. 3. – P. 7. DOI: 10.1002/pfi.21963.

⁵ Holec H. Autonomy in Foreign Language Learning. – Oxford: Pergamon, 1981. – P. 3.

⁶ Saidov O‘.R. O‘zbek tili ta’limi jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish // Zamonaviy ta’lim, 2017. – № 9. – 23 b.

⁷ Anderson L.V., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. Addison Wesley Longman, Inc, US., 2001. – P. 31-32.

qo‘llanilmoqda. P. Armstrong takomillashtirilgan Blum taksonomiyasining har bir bosqichiga quyidagicha tavsif berib o‘tadi: eng quyi hisoblangan “Eslash” bosqichida fakt va asosiy tushunchalar takrorlanadi hamda ta’riflanadi, “Tushunish” darajasida g‘oya va tushunchalar tushuntiriladi, klassifikatsiyalanadi, tasvirlanadi, muhokama va tarjima qilinadi. “Qo‘llash” bosqichida o‘rgangan bilimlar yangi vaziyatlarda qo‘llaniladi, mashqlar bajariladi. “Tahlil qilish” darajasida olingan ma’lumotlar bir-biriga bog‘lanadi, taqqoslanib o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi hamda o‘zlashtirilgan bilimga tanqidiy yondashib tekshiriladi. “Baholash” bosqichida mustaqil fikrlab, muhokamalarda erkin qatnashiladi, o‘z fikrini isbotlab, boshqalarning munosabatlariga tanqidiy yondasha olinadi. Eng yuqoridagi “Yaratish” bosqichida esa yangi va asl ish yaratiladi, loyihalanadi, rivojlantiriladi yoki yangilanadi¹ (1-rasmga qarang).



1-rasm. Blum taksonomiyasi.

Fikrimizcha, ingliz tilini Blum taksonomiyasining quyi darajalaridagi kabi *eslab*, *tushunib* va olingan bilimlarni *qo‘llab* emas, balki berilgan ma’lumotni *analiz* qilib, uni *baholab* va eng muhimi *yaratib* o‘rganilsagina, hozirgi zamon talabiga mos bilim va ko‘nikmalar egallanadi. Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, konstruktivizm nazariyasi, avtonom ta’lim va Blum taksonomiyasini qo‘llash natijasida nafaqat ingliz tilini samarali o‘qitish, talabning til malakalarini rivojlantirish, balki til o‘rganuvchilarning zamon talabi hisoblangan yuqori kognitiv fikrlashi, yaratuvchanlik va tanqidiy fikrlashi, mustaqil qarorlar qabul qilgan holda real hayotda o‘zlashtirilgan chet tilni mukammal darajada foydalanishi ta’minlanadi.

An’anaviy ta’limdagidek, ingliz tilini onlayn o‘qitish ham ma’lum bir nazariyalarga tayangan holda tashkil etiladi. Onlayn ta’limni samarali tashkil qilish maqsadida ishlab chiqilgan ilmiy nazariyalarni tahlil qilishdan avval, onlayn ta’limning tavsifiga to‘xtalib o‘tamiz. Bir necha ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish chog‘ida onlayn ta’lim termini masofaviy ta’lim bilan sinonim

¹ Armstrong P. Bloom’s Taxonomy // Vanderbilt University Center for Teaching, 2010. Retrieved [8.29.2021] from <https://cft.vanderbilt.edu/guides-sub-pages/blooms-taxonomy/>

sifatida almashtirilib ishlatilishi ma'lum bo'ldi. Lekin S. Bartliy va J. Goleklarning ta'kidlab o'tishlaricha, onlayn ta'lim masofaviy ta'limning bir shaklidir va so'nggi yillarda masofaviy ta'limning eng yirik sektoriga aylandi¹. Qisqacha qilib ifodalaganda, masofaviy ta'limning bir turi hisoblangan onlayn ta'lim quyidagicha bir necha turlarga bo'linadi: 1) qisman onlayn ta'lim; 2) aralash ta'lim; 3) to'liq onlayn ta'lim. To'liq onlayn ta'lim ham, o'z navbatida, ikki xil 1) juda katta guruhlarda o'qituvchisiz onlayn ta'lim; 2) kichik guruhlarda o'qituvchi boshchiligidagi onlayn ta'lim ko'rinishida bo'ladi. Mazkur tadqiqot ishimizda an'anaviy ta'limning o'rniga to'liqligicha onlayn ta'limdan foydalanib kichik guruhlariga o'qituvchi boshchiligidagi olib boriladigan ta'limni nazarda tutgan holda o'rgandik va tahlil qildik. Onlayn ta'lim ustida olib borilgan bir necha ilmiy ishlarga asos sifatida "Tadqiqotlar hamjamiyati (Community of Inquiry)" nazariyasi keltirib o'tilgan. "Tadqiqotlar hamjamiyati (CoI)" nazariyasi 2000-yilda D.Garrison, T.Anderson va V.Archerlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda ushbu nazariyaning mazmunini "mavjudlik" konsepsiyasi tashkil etadi. Ushbu nazariya asoschilariga ko'ra, onlayn ta'lim uchta muhim "kognitiv, ijtimoiy va o'qitish" mavjudliklaridan iborat bo'lsa, ta'lim jarayoni samarali tashkil etilishi mumkin. Kognitiv mavjudlik bu o'rganuvchilar tanqidiy fikrlashni yo'lga qo'ygan holda bir-birlari bilan o'zaro hamkorlikda mulohaza yuritish orqali yangi konsepsiyani o'rganib, tub ma'noni anglab yetishidir. Ijtimoiy mavjudlik – bu o'qituvchi va talabalarning ta'lim jarayonida faol ishtiroki hisoblanib, his-tuyg'u va fikr-mulohazalarni erkin ifodalash, ochiq muloqot va guruhning birligida faol muhokamalar olib borishi hisoblanadi. O'qitishning mavjudligi konsepsiyasi esa o'quv materiallari va instruksiya dizaynini ishlab chiqish, talabalarga asinxron bilan birgalikda sinxron ravishda ham ta'lim berish, shu bilan birgalikda onlayn taqdimotlar, topshiriqlar yaratishdir². Masofaviy ta'limning hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan turi hisoblangan onlayn ta'lim "tadqiqotlar hamjamiyati" (CoI) nazariyasi asosida samarali tashkil etiladi. Bunda o'rganuvchilarning yangi ma'lumotni kognitiv anglab yetishi, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishi, yangi bilimlarni hamkorlikda ishlagan holda birgalikda o'zlashtirishi, shuningdek, o'qituvchilar ham qiziqarli onlayn dars uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishini ta'minlanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida darslar, asosan, an'anaviy tarzda tashkillashtirilishiga qaramay, onlayn ta'limga bo'lgan talab va istaklar oshib bormoqda. Biroq pandemiya davridagi hech qanday tayyorgarliksiz, birdaniga barcha oliy ta'lim muassasalarning to'liqligicha onlayn ta'limga o'tishi va shu sababli darslarning sifatli tashkil etilmagani

¹ Bartley S.J., Golek J.H. Evaluating the Cost Effectiveness of Online and Face-to-Face Instruction // Educational Technology and Society, 2004. – № 7 (4). – P. 167-175.

² Garrison D.R., Anderson T., Archer W. Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education model // The Internet and Higher Education, 2000. – № 2 (2-3) – P. 87-105.

onlayn ta'limga nisbatan salbiy fikrning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, aslida har ikkala, an'anaviy va onlayn ta'limning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjud. Demak, onlayn ta'limning afzalliklaridan unumli foydalanib, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini xalqaro tajribadan o'rgangan holda Respublikamiz oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish lozim.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga an'anaviy va onlayn ta'limda ingliz tilini samarali o'qitish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilini o'qitish topshiriqqa asoslangan yondashuv (Task-based approach) va hamkorlikda ishlash (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasi asosida takomillashtirilgan, ingliz tilini samarali o'qitishga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan hamda onlayn ta'limni tashkil etishdagi muammo va yechimlar tahlili asosida ishlab chiqilgan ingliz tilini onlayn ta'limda samarali o'qitishning didaktik modeli yoritilgan.

M.T.Irisqulov, an'anaviy yondashuv asosida o'qitilganligi sababli talabalar ingliz tilini hayotda qo'llay olmas edilar, deb ta'kidlagan holda bugungi kunda grammatik tarjima metodi kabi an'anaviy metodlardan voz kechib, nazariya va amaliyotni parallel ravishda olib borilishi lozimligiga urg'u bergan¹. M.X.Gulyamova esa chet tillarni o'qitishda kombinatsiyalashgan-individual yondashuv, ongli yondashuv, situativ yondashuv, kognitiv va kommunikativ yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Lekin M.X.Gulyamova “O'quv faoliyatini samarali tashkil qilish, dars jarayonida turli xil metod, usul, vositalardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish, ularni uzviy bog'liq holda qo'llay olish ta'lim samaradorligining muhim omillaridan biridir” deb yozadi². Biz esa “topshiriqqa asoslangan” yondashuv va “hamkorlikda ishlash” ta'lim texnologiyasi asosida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini an'anaviy hamda onlayn ta'limda samarali o'qitish modelini ishlab chiqdik.

“Topshiriqqa asoslangan” yondashuv (Task-based approach)ning – chet tilni topshiriq va mashqlar asosida o'qitishni asosiy maqsad qilgan holda avtonom ta'limdagi kabi talabalarni ko'proq mustaqil, tajriba asosida o'rganishga undaydi. K.Brandl va J.Uillislarning fikriga ko'ra, ushbu yondashuv asosida chet tilni o'qitishda topshiriqlar orqali muloqotga hamda ma'noga ustuvor ahamiyat beriladi³. S.Fizning ta'kidlashicha, “topshiriqqa asoslangan” yondashuvning asosiy elementi hisoblangan mashqlar chet tilda muloqotni rivojlantirish va ma'noning muhimligiga urg'u beradi⁴.

¹ Irisqulov M.T. Til va adabiyot ta'lim jurnali muharririga bergan intervyusi // Til va adabiyot ta'limi. – № 1. – T., 2017. – B. 27.

² Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Ped. fan. fal. d-ri diss. – T., 2019. – B. 42.

³ Brandl K. Communicative language teaching in action: Putting principles to work (2nd ed.). – San Diego, CA: Cognella, 2021. – 522 p.; Willis J. A flexible framework for task-based learning // In Willis J., Willis D. Challenge and Change in Language Teaching. – Oxford: Heinemann, 1996. – P. 52-62.

⁴ Feez S. Text-Based Syllabus Design. – Sydney: National Centre for English Teaching and Research, 1998. – 144 p.

“Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu o‘quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan biri bo‘lib, juftlik yoki guruhli ta’limdan foydalangan holda tilni hamkorlikda o‘rganish g‘oyasini ilgari suradi. Ko‘plab tadqiqot ishlarida an’anaviy ta’limda barcha fanlarni yoki maktabda ingliz tilini o‘qitish uchun taklif etilgan “hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasining elementlari, bizni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga an’anaviy va onlayn ta’limda ingliz tilini o‘qitishda ham mazkur metoddan samarali foydalanish uchun tarkibiy elementlarni ishlab chiqishimizga turtki bo‘ldi. OTMlarda o‘qituvchilar va shu bilan birgalikda talabalar ham o‘qituvchiga yo‘naltirilgan, ma’ruza shaklidagi darslardan zerikishlari tabiiy hol, shu bois “hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasi ingliz tilini an’anaviy va onlayn o‘qitishga joriy etish o‘quv jarayonining samaradorligini belgilaydi. Nafaqat an’anaviy ta’limda, balki chet tillarni onlayn o‘qitishda ham talabalarning hamkorlikda ishlashi juda muhim. L.Nelsonning ta’kidlashicha, texnologiya shubhasiz o‘qituvchilar va talabalarga hamkorlikdagi onlayn muhitda to‘liq ishtirok etish imkoniyatini beradi. “Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasining onlayn o‘qitishga tatbiqi T.F.Silalaxi va A.F.Xutavruklar¹ tomonidan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, hozirgacha nafaqat ingliz tilini o‘qitishda, balki umumiy ma’noda barcha fanlarni onlayn o‘qitishda ham mazkur metoddan samarali foydalanish uchun tarkibiy elementlari taklif etilmagan. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga ingliz tilini an’anaviy va onlayn o‘qitishda “Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasini samarali qo‘llash uchun quyidagi jadvalda keltirilgan tarkibiy elementlar bo‘lishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



2-rasm. “Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasining taklif etilayotgan tarkibiy elementlari.

¹ Silalaxi T.F., Hutaurok A.F. The Application of Cooperative Learning Model during Online Learning in the Pandemic Period // Budapest International Research and Critics Institute-Journal, 2020. – № 3 (3). – P. 1683-1691. DOI: <https://doi.org/10.33258/birci.v3i3.1100>.

Tengdoshni tengdosh baholashidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida S.Rachmijati va uning hamkasblari tomonidan o'quvchilarning gapirish malakasini baholash uchun ishlab chiqilgan baholash mezoniga¹ yangi "tengdoshning tengdoshga fikr-mulohazasi" bo'limi qo'shilgan holda takomillashtirildi. Ishlab chiqilgan baholash mezonida og'zaki nutqni quyidagi beshta mezon asosida tekshirish talab etiladi: 1) aniq va tushunarli nutq so'zlash; 2) grammatik tuzilmalardan oqilona foydalanish va grammatik xatolar; 3) so'z boyligining yetarliligi va so'zlarni kontekstga mos ravishda to'g'ri qo'llay olish; 4) ravon nutq so'zlay olish va to'g'ri talaffuz; 5) berilgan vaqt ichida fikrni to'liq bayon etish va o'ziga ishonch bilan nutq so'zlash. Ushbu mezonlarning har biriga maksimal uch ball dan ajratilgan va har bir baholash mezoniga qay holatda bir, ikki yoki uch ball qo'yilishi batafsil tavsiflangan bo'lib, umumiy hisobda talaba maksimal 15 ball olishi mumkin. Talabalarga mazkur baholash mezonini taqdim etilishidan avval, albatta, o'qituvchi tomonidan batafsil tushuntirish berilishi, ya'ni rubrika tarkibidagi mezonlar va qay holatda bir, ikki yoki uch ball qo'yilishining tavsifi batafsil izohlanishi lozim. Talabalar bir-birlarini aniq mezon asosida baholab, o'z fikr-mulohazalarini yozishi uchun alohida ustun kiritilganligi, ulardan qo'yilgan ballni asoslab berishni, diqqat bilan tekshirish uchun bor bilim-mahoratini ishga solishni, analiz va sintez qilishni talab etadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari bir-birlarini baholash orqali nafaqat o'zlashtirilayotgan xorijiy tilni mustahkamlaydi, balki kasb mahorati hisoblangan baholash ko'nikmasi va fikr-mulohaza bildirish malakalarini ham rivojlantiradi.

Topshiriq va mashqlarning tasnifi borasidagi tadqiqot ishlarini o'rganib chiqib, biz bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga an'anaviy va onlayn ta'limda ingliz tilini samarali o'qitish uchun darslikdagi mashqlarni Blum taksonomiyasining yuqori kognitiv fikrlash darajasiga moslashtirish lozim deb topdik hamda quyidagi mashqlar tizimini ishlab chiqdik: 1) Motivatsion mashqlar; 2) Sinov mashqlari; 3) Tanqidiy fikrlash mashqlari. Chet tilni, xususan, ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitishda mashqlardan shu ketma-ketlikda, ya'ni dars boshida (agar lozim deb topilsa dars davomida ham) motivatsion, undan so'ng mavzuga doir sinov, keyin esa tanqidiy fikrlash mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq degan g'oyani ilgari surdik. Bu esa 3-4 rasmlarda keltirilgan mexanizmlar orqali quyidagicha ifodalanadi (3-4 rasmlarga qarang).

¹ Rachmijati C., Anggraeni A., Apriliyanti D. Implementation of blended learning through youtube media to improve students' speaking skill // OKARA: Jurnal Bahasa dan Sastra, 2019. – № 13 (2). – P. 153-164. DOI: 10.19105/ojbs.v13i2.2424.


I. Motivatsion mashqlar – talabani asosiy mashqqa tayyorlab, dars davomidagi keyingi jarayonlarda yuqori qiziqish bilan faol bo‘lishga undaydi.

